

2025-yil “13” fevraldag'i
112-sonli buyruqqa
1-ilova

**“O‘zbekiston – 2030 strategiyasining 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot yili”da
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida amalga oshirishga oid
CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
I. HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISH UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH YO‘NALISHI BO‘YICHA					
Ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish					
1.	“Davlat – xalq xizmatchisi” tamoyili asosida jismoniy va yuridik shaxslar qabullari va tarkibiy bo‘linmalarda sayyor qabullarni o‘tkazish	<p>1. Rahbariyatning 2025-yilga mo‘ljallangan shaxsiy masalalar bo‘yicha qabul va joylarda sayyor qabullarini o‘tkazish bo‘yicha reja-jadval tasdiqlash va amalga oshirish.</p> <p>2. Tasdiqlangan reja-jadval asosida barcha bo‘linmalarda qabullar tashkil etish.</p>	Jadval asosida	-	<u>Sh. Idiyev,</u> <u>Q. Taparov,</u> <u>I. Raxmatov</u>
25-maqsad: Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faoliigini oshirish va gender tenglikni ta’minlash					
2.	Jamoada xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, Gender tenglikni ta’minlash, munosib ish va yashash sharoitlarini yaratish	<p>1. Tarkibiy bo‘linmalarda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, Gender tenglikni ta’minlash va sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.</p> <p>2. Davlat mukofotlari sovrindorlari, shuningdek, kombinat faol xotin-qizlari ishtirokida jamoalarda uchrashuvlar, davra suhabatlari tashkil etish.</p> <p>3. Bo‘linmalarda xotin-qizlarga yaratilgan sharoitlarni o‘rganish va etarli sharoitlar yaratishga ko‘maklashish.</p>	2025-yil aprel Yil davomida Reja asosida	-	<u>S. Nazarova,</u> <u>F.Hoshimov,</u> <u>A.Tursunov,</u> <u>O.Temirov</u>

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
3.	15-may – “Xalqaro oila kuni”ni keng nishonlash va “Yangi O‘zbekistonning ibratli oilasi” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish	1. Ishlab chiqilgan Nizom asosida tanlovn o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish. 2. Tanlov g‘olib va sovrindorlari, deb topilgan jamoalar va ishchi-xodimlarni rag‘batlantirish.	2025-yil aprel 2025-yil may	-	<u>S. Nazarova,</u> I. Raxmatov, X. Raupov, S. Radjabov
4.	Xotin-qizlarga tazyiq va zo‘rvonlikka nisbatan murosasiz kurashish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan targ‘ibot tadbirlari o‘tkazish	1.Tarkibiy bo‘linmalarda targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha reja ishlab chiqish va amalga oshirish. 2.Targ‘ibot tadbirlariga hamkorlik asosida chetdan xotin-qizlar tashkilotlari, diniy idoralar va boshqa tashkilotlardan vakillar va ma’ruzachilar jalb etish.	Har chorakda	-	<u>S. Nazarova,</u> X. Raupov, S. Radjabov, S.Boboyorova
29-maqsad: Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularni zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish					
5.	Oliy ta’lim muassasalarining sirtqi bo‘limiga o‘qishga kirish uchun yosh, istiqbolli xodimlarga tavsiyanomalar berishni komission tartibda ko‘rib chiqib, nomzodlarni saralash va talabalikka qabul qilingan xodimlar kontrakt to‘lovlarini tavsiyanomaga asosan to‘lab berish	1. Mazkur jarayonni ishlab chiqiqlgan ichki idoraviy hujjat asosida amalga oshirish. 2. Tarkibiy bo‘linmalardan munosib nomzodlarni tanlash, saralash va NKMK boshqarmasiga (Markaziy komissiyaga) tavsiya etish. 3. Markaziy komissiya tomonidan nomzodlarni adolatlik tamoyili asosida ko‘rib chiqish va ular orasidan eng munosib nomzodlarga tavsiya berish. 4. Oliy o‘quv yurtlariga qabul qilingandan so‘ng ularning kontrakt-to‘lovini to‘lab berish.	2025-yil II chorakda 2025-yil III - IV chorakda	6 500,0 “NKMK” AJ mablag‘lari	<u>F. Xoshimov,</u> Q. Taparov, J. Xasanov, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari
6.	Kombinatda faoliyat yuritayotgan o‘rtal va quyi bo‘g‘in rahbar va xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash	1. Rahbar-xodimlar, mutaxassislar va ishchi-xizmatchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo‘yicha o‘qitish reja-jadvalini ishlab chiqish. 2. Reja-jadval asosida malaka oshirish va qayta tayyorlashga jalb etilganlarni dasturlar asosida o‘qitish.	Yil davomida	15 200,0 “NKMK” AJ mablag‘lari	<u>F. Xoshimov,</u> Q.Taparov, R. Saidov, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari
7.	Rossiya Federatsiyasining Kislovodsk shahridagi “O‘zbekiston” sanatoriyasida “dam olish-davolanish-bilim olish-malaka oshirish” loyihasi doirasida	1. Tarkibiy bo‘linmalarda ko‘p yillardan buyon zararli sharoitda ishlayotganlar, jamoa o‘rtasida hurmatga sazovor bo‘lgan, davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlarni saralash va ularni loyiha asosida dam olish va malakasini oshirishini tashkil etish.	Yil davomida	850,0	<u>A. Rizayev,</u> Q. Taparov, I. Raxmatov, F.Xoshimov, B. Saidov

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
	xodimlarning malaka va bilimini oshirish				
31-maqsad: Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy salohiyatini rag‘batlantirish					
8.	Yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarador-ligini oshirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash	<p>1. Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilda NKMKnida amalga oshirish dasturi ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish.</p> <p>2. Dasturga asosan besh muhim tashabbus, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish.</p> <p>3. G‘olib va sovrindorlar, faol qatnashgan yoshlarni rag‘batlantirish.</p>	2025-yil fevral Dastur muddatlari doirasida	Tasdiqlangan dastur asosida	<u>S. Radjabov,</u> <u>I.Raxmatov,</u> <u>X. Raupov,</u> bo‘linmalar rahbarlari
9.	Yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, intellektual salohiyatini oshirish, iqtidor va iste’dod egalari g‘oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash	<p>1. “Yilning eng yaxshi yosh mutaxassis”, “Yilning eng mohir yosh kasb egasi”, “Yilning eng yaxshi boshlang‘ich tashkilot yetakchisi”, “Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi” tanlovlari va “Zakovat” intellektual o‘yinini o‘tkazish.</p> <p>2. G‘olib va sovrindorlar, faol qatnashgan yoshlar rag‘batlantirish.</p>	2025-yil fevral Tasdiqlangan dastur muddatlariiga asosida	736,0 “NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablag‘lari	<u>S.Radjabov,</u> <u>I.Raxmatov,</u> <u>X.Raupov,</u> tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari
10.	Sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish maqsadida, ommaviy sport musobaqalarida ishchi-xodimlar, yoshlar qamrovini kengaytirish	<p>1. Ishchi-xodimlarning jismoniy faolligi darajasini oshirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish choralarini ko‘rish.</p> <p>2. Ishchi-xodimlar uchun tasdiqlangan grafik asosida payshanba va shanba kunlari qulay paytlarda Navoiy shahridagi “So‘g‘diyona” jismoniy tarbiya va sport majmuasida sportning mini futbol, voleybol, stol tennisi, gandbol, basketbol, yengil atletika, aerobika, shaxmat-shashka turlari bo‘yicha mashg‘ulotlarini tashkil etish va mutazam o‘tkazish.</p> <p>3. Har xil sport musobaqalari va yugurish marafonlarini tashkil etish.</p>	Yil davomida	219,0 “NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablag‘lari	<u>M.Nurimova,</u> <u>Q. Taparov,</u> <u>I. Raxmatov,</u> <u>S.Radjabov,</u> tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari, D.Ochilov (<i>kelishilgan holda</i>)

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
11.	Kombinat ishchi-xodimlari va Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabalarining ishlab chiqarish obyektlariga ekskursiyalarini tashkil etish	1. Kombinat ma’muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosatining qo‘shma qarorini qabul qilish. 2. Tasdiqlangan reja-jadval asosida 400 nafar ishchi-xodimlar va talabalarning ekskursiyalarini tashkil etish.	Yil davomida (jadval asosida)	170,0 “NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablag‘lari	<u>S. Radjabov,</u> <u>Q.Taparov,</u> <u>I. Raxmatov,</u> <u>R. Ergashev,</u> tarkibiy bo‘lmalar rahbarlari B.Mardonov (kelishilgan holda)
12.	NKMK pensionerlariga Jamoa shartnomasi asosida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olishlari uchun bir martalik mablag‘ ajratish	1. 9360 nafar kombinat pensionerlariga mablag‘ ajratishni tashkil etish.	Yil davomida	7 558,4 “NKMK” AJ mablag‘lari	<u>F.Xoshimov,</u> <u>I. Raxmatov,</u> <u>J. Novikova,</u> tarkibiy bo‘lmalar rahbarlari
13.	Jamoa shartnomasiga binoan pensionerlar sog‘ligini yaxshilash va mazmunli dam olishi uchun sanatoriylariga imtiyozli yo‘llanmalar ajratish	1. Jamoa shartnomasining 14-ilovasiga asosan yil davomida 800 nafar pensionerlarga yo‘llanmalar ajratish.	Yil davomida	3 600,0 “NKMK” AJ mablag‘lari	<u>I.Bazarov,</u> <u>I. Raxmatov</u>
14.	Kam ta’minlangan, yordamga muhtoj ishchi-xodimlar va kombinat pensionerlariga moddiy yordam ajratish	1.Kasaba uyushma Kengashining “Birdamlik” fondi mablag‘lari hisobidan 600 nafar ishchi-xodimlar va pensionerlarga moddiy yordam ajratish.	Yil davomida	1 500,0 Kasaba uyushmasi mablag‘lari	<u>O.Temirov,</u> <u>I. Raxmatov,</u> kasaba uyushma qo‘mitalari raislari
15.	Respublikamizning chekka va cho‘l hududlarida yashovchi ming nafardan ortiq kam ta’minlangan oila farzandlari va oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilari uchun bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlariga imtiyozli yo‘llanmalar ajratish	1. Respublika muvofiqlashtiruvchi guruhi tomonidan imzolangan bayonnomaga asosan Kombinat ma’muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosati qo‘shma qarorini qabul qilish va shu asosida imtiyozli yo‘llanmalar ajratish.	2025-yil iyun-avgust	2 800,0 “NKMK” AJ mablag‘lari	<u>N.Davronov,</u> <u>Q. Taparov,</u> <u>J.Xasanov,</u> <u>I. Raxmatov</u>

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
16.	Kam ta’minlangan ishchi-xodimlar oilasiga va ehtiyojmand yolg’iz pensionerlar uchun oziq-ovqat mahsulotlari to‘plamini ajratish	<p>1. NKMK ma’muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosatining qo‘shma qarori asosida 1 250 dan ortiq oziq-ovqat to‘plami ajratish va tarqatish.</p> <p>2. Ajratilgan oziq-ovqat to‘plamlarini tarqatishga volontyor yoshlarni jalg etish.</p>	Bayramlar arafasida	750,0 “NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablag‘lari	<u>B. Saidov,</u> <u>J.Xasanov,</u> <u>I. Raxmatov</u>

38-maqsad: Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash

17.	Targ‘ibot-tashviqot ishlarni tashkil etishning ta’sirchan uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o‘z vaqtida amalga oshirish choralarini ko‘rish	<p>1. Kombinatda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘yicha Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan kelishilgan “kalendar-reja” ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. “Kalendar reja”da belgilangan tadbirlar va vazifalarni o‘z vaqtida bajarish.</p>	2025-yil fevral Yil davomida	-	<u>X. Raupov,</u> <u>S. Radjabov</u>
18.	Yosh oilalar, imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlash, volontyorlik aksiyalarini tashkil etish	1. “Ezgulik yo‘lida birlashaylik!”, “Fidoyi yoshlar” aksiyalari, “Ezgulik albatta qaytadi” qon topshirish aksiyalarida kombinat ishchi-xodimlari, shu jumladan, yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash.	Yil davomida	36,0	<u>S.Radjabov,</u> <u>I. Raxmatov,</u> <u>B. Saidov</u>
19.	Ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashdirish, xodimlarning terrorizm va ekstremizm mafkurasiga qarshi kurashish, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolgan shaxslar bilan tizimli ishlar olib borish	<p>1. Tarkibiy bo‘linmalarda “Jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish.</p> <p>2. Ishchi-xodimlar va yoshlar o‘rtasida muntazam terrorizm, ekstremizm va diniy aqidaparastlikka qarshi ma’naviy tadbirlarni amalga oshirish.</p>	Yil davomida	-	<u>X. Raupov,</u> <u>S. Radjabov,</u> Tarkibiy bo‘linma rahbarlari

47-maqsad: Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish

20.	Respublika davlat dasturi 4-ilova 6-band. Mahalliylashtirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar turlarini ko‘paytirish.	<p>1.Mahalliylashtirish dasturi doirasida 1 364,4 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha reja-jadval ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Loyihalarni belgilangan muddatlarda amalga oshirish bo‘yicha doimiy monitoring ishlarini olib borish.</p>	Yil davomida	Xarajatlar asosiy faoliyat va Investitsiya dasturi doirasida nazarda tutilgan xarajatlar tarkibiga kiritilgan	<u>E.Danilina,</u> <u>U.Sanaqulov,</u> <u>U. Raxmatov,</u> <u>M. Amonov,</u> <u>J.Xayitov</u>
-----	---	--	--------------	---	---

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
		3.Loyihalarni amalga oshirishda aniqlangan muammolarni bartaraf etish, zaruriy hom-ashyo va butlovchilar bilan o‘z vaqtida ta’minlash.			

II. BARQAROR IQTOSIDIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA’MINLASH YO‘NALISHIDA

48-maqсад: Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish

21.	Respublika davlat dasturi, Farmoning 4-ilovasi 8-band: Yirik korxonalar tomonidan ESG hisobotlarini yuritish amaliyotini yo‘lga qo‘yish hamda jamoatchilikka oshkor qilish	1. Hisobot yozish uchun ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish. 2. Hisobot yozish. 3. Hisobotni tashqi mustaqil auditor tomonidan verifikatsiyasini o‘tkazish. 4. Hisobotning yakuniy versiyasi dizaynni tayyorlash, hisobotni korporativ veb-saytda yoritish.	Yil davomida	200 ming AQSh dollari	<u>B. Samoylenko,</u> A. Antonov, A. Cherdansev, X. Baqoyev
-----	--	---	--------------	-----------------------	--

22.	Respublika davlat dasturi, Farmonning 4-ilovasi 12-band: “Muruntov” konini o‘zlashtirishning investitsiya loyihasining navbatdagi bosqichlarini amalga oshirish	1. Investitsiya loyihasini (V navbat I bosqich) amalga oshirish doirasida asbob-uskunalarini qurilish maydonchasiga yetkazish, o‘rnatish va qurilish-montaj ishlarini yakuniga yetkazish. 2. “Muruntov” konini o‘zlashtirish investitsiya loyihasining V navbat I bosqichini foydalanishga topshirish.	2025-yil noyabr 2025-yil dekabr	13,0 mln AQSh dollari	<u>M. Alkarov,</u> F. Baxronov, M. Amonov, N.Ro‘ziyev,
-----	---	---	------------------------------------	-----------------------	---

49-maqсад: Mamlakatimizning invistitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivijlantirish

23.	Respublika davlat dasturi, Farmonning 16-ilovasi 28-band: Atrof-muhitni muhofaza qilish va issiqxona gazlari tashlanmalarini kamaytirishga qaratilgan strategiyani amalga oshirish	1. Ishlab chiqarish korxonalarida inson omilisiz monitoring olib borish maqsadida namuna olish va tahlil qilish bo‘yicha 2 ta avtomatik stansiya o‘rnatish choralarini ko‘rish. 2. Zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalarini o‘rnatish va eskilarni almashtirish. 3. Iqlim strategiyasini ishlab chiqish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga o‘tishni amalga oshirish.	Yil davomida	Tender asosida “NKMK” AJ mablag‘lari	<u>B. Samoylenko,</u> A. Cherdatsev, X. Baqoyev, V. Pulatov
-----	--	--	--------------	--------------------------------------	--

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
58-maqсад: O‘zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlarni yaratish orqali sayyoхlar sonini oshirish					
24.	“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” loyihasi va “Moziya sayohat” dasturi asosida tarixiy shaharlarga 7 700 nafardan ortiq kombinat ishchixodimlari uchun ichki turizm hamda teatrlarga tashriflarni tashkil etish	<p>1. Kombinat ma’muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi qo‘shma qarori va reja-jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>2. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa tarixiy shaharlarga sayohatlar tashkil etish.</p>	Reja-jadval asosida	4 000,0 “NKKM” AJ va Kasaba uyushmasi mablag‘lari	<u>M.Nurimova,</u> <u>J.Xasanov,</u> <u>I. Raxmatov,</u> <u>R. Ergashev,</u> <u>S. Radjabov,</u> <u>S.Nazarova</u>
61-maqсад: Infratuzilma loyihalarini barqaror va uzoq muddathli moliyalashtirish manbaalari bilan ta’minlash					
25.	Respublika doirasida har yili o’tkaziladigan hududiy tarmoq-lararo sanoat yarmarkalarida faol ishtirok etish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish	<p>1.Yarmarkalarda kombinat mutaxassislarining ishtirok etishini ta’minlash.</p> <p>2.Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlik ko‘lamini kengaytirish choralarini ko‘rish.</p>	Yil davomida	Asosiy faoliyat mablag‘lari doirasida	<u>E.Danilina,</u> <u>M.Amonov,</u> <u>J.Xayitov</u>
III. SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH					
71-maqсад: Biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta’minlash					
26.	“Yashil makon” umummilliyligi loyihasi doirasida kombinat tomonidan joriy yilda manzarali va mevali daraxt hamda buta ko‘chatlarini ekish bo‘yicha taqsimot rejasini tasdiqlash.	<p>1. Manzarali va mevali daraxt hamda buta ko‘chatlarini ekish bo‘yicha taqsimot rejasini tasdiqlash.</p> <p>2. Reja asosida bo‘linmalarda belgilangan muddatlarda 443 ming tup ko‘chat ekish ishlarini amalga oshirish.</p>	2025-yil bahor va kuz fasllari	2 700,0 “NKKM” AJ mablag‘lari	<u>B. Saidov,</u> <u>X.Baqoyev,</u> <u>Q. Taparov,</u> <u>N. Djulibekov,</u> <u>J.Xasanov,</u> <u>I. Raxmatov,</u> tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
VI. “XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT” TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZCHIL DAVOM ETТИRISH YO‘NALISHIDA					
100-maqсад: Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish					
27.	Yurtimizda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va xalqlararo do‘stlikni targ‘ib etuvchi madaniyma‘rifiy tadbirlarni o‘tkazish	<p>1. 30-iyul – Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan “Do‘stlik” festivalini tashkil etish va o‘tkazish.</p> <p>2. Kombinat va uning bo‘linmalarida turli millat vakillari o‘rtasida hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p>3. Tadbirlarda faol ishtirok etganlarni qimmatbaho sovg‘alar bilan rag‘batlantirish.</p> <p>4. 16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuniga bag‘ishlab bo‘linmalarda “Bag‘rikenglik” haftaligini o‘tkazish.</p>	<p>2025-yil iyul Yil davomida 2025-yil noyabr</p>	-	<u>O.Temirov,</u> I. Rakmatov, X. Raupov, S. Radjabov, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari
V. QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH YO‘NALISHIDA					
89-maqсад: Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish					
28.	Ishchi-xodimlari o‘rtasida Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-axloq qoidalari va boshqa ichki idoraviy hujjalarni targ‘ib qilish va o‘quv seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish, so‘rovnomalar o‘tkazish	<p>1. Kombinat ishchi-xodimlari o‘rtasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p>2. Barcha bo‘linma ishchi-xodimlarining huquqiy bilim va ongini yuksaltirish bo‘yicha keng qamrovli targ‘ibot tadbirlari, davra suhbatlari va seminarlar o‘tkazish.</p>	<p>2025-yil fevral Yil davomida</p>	-	R. Avezov, X. Raupov
29.	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish choralarini ko‘rish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olishning samarali mexanizmlarini yaratish	1. Adliya vazirligidan 2022-yil 31-avgustda 3383-son bilan ro‘yxatga olingan Uslubiyot (<i>korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash</i>) asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish, profilaktika qilish va ularning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish.	<p>Yil davomida</p>	-	R.Avezov

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m)	Ijrochilar
30.	Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni nkmk.uz rasmiy veb-saytga joylashtirib borish	<p>1.Rasmiy veb-sayt va ochiq ma’lumotlarni o‘z vaqtida Jamoatchilik bilan aloqalar departamenti Raqamli kommunikatsiyalar bo‘limiga taqdim etish.</p> <p>2.Rasmiy veb-saytga hamda ochiq ma’lumotlar portaliga qonunchilik bilan talab etilgan ochiq ma’lumotlarni o‘z vaqtida joylashtirib borish.</p> <p>3.Rolik va infografikalar tayyorlash hamda yoritish.</p>	Yil davomida	-	X. Raupov, B. Davlatov, R.Avezov,

DAVLAT DASTURINI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA IJTIMOIY TARMOQLAR ORQALI KENG YORITIB BORISH YO‘NALISHIDA

31.	“Konchilar hayoti” alohida rukn ostida materiallar berib borish	1. Gazetada rukn tashkil etish va shu asosida yil davomida muntazam materiallar berib borish.	Yil davomida	-	N. Sadreddinov, tahririyat muxbirlari
32.	Davlat dasturining kombinatdagi ijrosi yuzasidan jamoatchilikni xabardor etib borish, OAVlarda keng yoritish	<p>1. Har chorakka mo‘ljallangan media-reja ishlab chiqish, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan kelishish va ushbu media tadbirlarni o‘z vaqtida o‘tkazish.</p> <p>2. Davlat dasturi ijrosini respublika va OAVlarida yoritib borish.</p>	Yil davomida	-	A. Jo‘rayev, X. Raupov

Izoh:

2025-yilda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida “O‘zbekiston – 2030 strategiyasining 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid chora-tadbirlar Dasturi tadbirlarini amalga oshirishning jami xarajatlari (dastlabki hisob-kitoblarga asosan)

46 619,4 mln so‘m va 13 mln 200 ming AQSh dollarini tashkil qiladi.

